

“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR”DAGI HIKMATLARNING MAZMUNYI YO‘NALISHLARI VA ULARNING TASNIFI

Rustamova Ibodat Ikramovna

FarDU, adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Maxsudov Abbosjon Odiljon o‘g‘li,

FarDU 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada har xil asarlar asosida badiiylik tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Chunki asarda yangilik bo‘lmasa, uning o‘rniga qaytariq, takror bo‘lsa, badiiy asar adabiyotga noqarardir. Har bir asar taqdirini ritorika emas, balki yangilik, nafasat hal qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, badiiylik, mavzu, g‘oya, tarixiy mavzu, ijodkor, muammo.

ABSTRACT

The article reveals the essence of the concept of artistry based on various works. Because if there is no novelty in the work, if instead of it there is repetition, then the work of art is useless for literature. The fate of each work is decided not by rhetoric, but by innovation and sophistication.

Keywords: artwork, theme, idea, historical theme, creator, problem.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается сущность понятия художественности на примере различных произведений. Потому что если в произведении нет новизны, если вместо нее повторение, то произведение искусства бесполезно для литературы. Судьбу каждого произведения решает не риторика, а новаторство и изысканность.

Ключевые слова: произведение искусства, тема, идея, историческая тема, создатель, проблема.

KIRISH

Har bir yozuvchi – jamiyat hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati, ular haqida aytadigan fikrlari bo‘ladi. Ijodkor ularga munosabat bildirmasa, uning yozuvchiligi, ijodkor va o‘quvchi o‘rtasidagi rishtaning nobopligi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining o‘z xalqi, o‘z millati hayotidan ajralib, faqat o‘zining qobig‘iga o‘ralib qolib, uning tirikchilik yoki shuhrat uchun ijod qilayotgandek taassurotlar yuzaga keladi. Cho‘lponmi, ustoz Abdulla Qahhormi yoxud Abdulla Oripovmi muayyan masalaga munosabat bildiribdimi, demak, u

jamiyat va odamlarning amalga oshirayotgan ishlari, qarashlari, o'y-fikrlaridan ko'ngli to'lmaganining dalolatidir. Bu holatda ijodkor qalamga suyanadi, kallasida g'ujg'on urgan fikrlarni she'r, hikoya, qissa yoki publitsistik maqola shaklida qog'ozga tushiradi. Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi bejiz yozilmagan.

Yevropada shunday naql yuradi: "Shoirlar qishloqda tug'ilib, shaharda o'ladilar". Bu gapda anchayin jon bor. Juda ko'p shoirlar qishloqda tavallud topsalar-da, shaharga intilgan, shu zaminda nash'u namo topib, shuhrat pillapoyalariga ko'tarilganlar. Biroq yana shunday shoirlar borki, ular tug'ilgan go'shalari – qishloqlarini – kindik qoni to'kilgan joyni muqaddas sanab, shu erda istiqomat qilganlar, shu ma'voning kishilari duosini olib, ularning mehru muhabbatini qozonganlar, obro' topganlar. Bunday qalamkashlarning sanog'ini sanab, adog'iga etish mushkul. Mumtoz shoirlar shaharga intilmaganlar. Qaerda tavallud topgan bo'lsalar, shu erni maskan tutganlar, shu maskanda tirikchilik atalmish qattiq riyosatni bo'yniga olganlar; ham ahli ayoli oldidagi burchlarini ado etganlar, ham jamiyatning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatganlar; shu joyda qalam tebratganlar, shoir degan ulug' mashaqqatni zimmasiga olganlar, unga dog' tekizmasdan, Allohning ulug' ne'matlaridan biri bo'lgan SO'ZGA xizmat etib, e'tibor topganlar, sharaflanganlar. Yoriy, Hakim Yayfoni, Muxayyir, To'ra Sulaymon va h. Zo'r mamnuniyat va cheksiz iftixor bilan aytish joizki, o'zbek so'zning muqaddasligi va muhtashamligiga qadimul ayyomdan imon keltirgan, hech bir zamon o'zining rost va raso so'zidan tonmagan, latif lafzining badiiy imkoniyatu sinoatlari inkishofidan hamisha huzur va hayratlar ichra yashagan, so'z ohanglari og'ushida uzun-uzun o'ylarga tolgan, bu ohanglardagi masruriyat tuyg'ularidan ko'ngli yayrab qiqirlab kulgan, qisqasi, kalom degan yakto qadriyatni oq yuvib, oq taragan, kamolga oshno qila bilgan xalqdir. Bu ko'hna va ko'hlik o'lkada, ma'rifatu nafosatning, madaniyat ma'naviyatning benazir beshigi bo'lmish ona Turkistonimizda betakror badiiyat bilan yukungan sohir so'zning nufuzi azaldan yuksak va mo'tabar bo'lgan. SHuning uchun ham kasbu maslagidan, ilmu hunaridan qat'i nazar, badiiy so'zga biron-bir darajada bo'lsin alohida e'tibor va ehtirom bilan qaramagan, muhiblikni kamida tamanno qilmagan kishini yurtimizdan topish mushkul. SHuning uchun ham har birimizning ko'nglimizda, hech bo'lmaganda, botiniy shoirlikning iddaosi istiqomat qiladi. Adabiyot, madaniyat, san'at kabi bemisl ma'naviy qudratning inson ruhiy olamining takomil sari faoliyatida tengsiz harakatlantiruvchi kuch sifatidagi mohiyati ham ana shunda ko'rinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'tkir Hoshimov hikoya, qissa va romanlariga sig'magan fikrlarini "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" deb shoirona nom olgan kitobiga qayd etib borganligini ana shular bilan izohlash lozim bo'ladi.

Ardoqli va mumtoz shoiramiz Nodirabegim "Maqsad ne edi, jahona kelding, Kayfiyatingni bayon etib ket" deganlaridek, O'tkir Hoshimov ham ko'rgan-bilganlarim hosilasini – ayrim kechinmalarimni bir to'plamcha qilgan.

O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"idan badiiyat bilan yakunlangan so'zlarning inja harakatini maroq bilan kuzatish mumkin. Undagi qaydlarda bayon qilingan fikr-tuyg'ularni har kim ham ayta olmaydi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, undagi har bir qaydni alohida, bir mustaqil asar sifatida qabul qilish mumkin. Bulardagi samimiyat, badiiy so'zga oshuftalik va shaydolik mulohaza va mushohadalarning har bir satrida mana man deb turadi. Ana shu samimiyat o'quvchi qalbini beozor zabt etadi, uni adibning badiiy tafakkur olamiga olib kiradi.

Bir lirik chekinish qilib ko'raylik. XX asrning eng zakovatli shoirlaridan biri Erkin Vohidov "So'z – zabarjad" nomli kichik bir she'rida ushbularni qayd etgan edi:

So'z – zabarjad,

So'z – gavhar, oltin.

Zargarlikning mashaqqati ko'p.

So'zni baytga qadashdan oldin

Kaftingga qo'y, to'yib qara, o'p!¹

Darhaqiqat, ko'p so'z ustalari e'tirof etganidek, so'zning shakl va ma'no tovlanishlari bisyor – mo'l, serma'no va serjilo. Bu so'zning ilohiyligining bir dalolati (buyuk Navoiy "Hayrat ul-abror"da Olam va kurrayi zaminning barcha xilqatlarining zodasi "Kun" – "YAral!" ekanini, xali hech bir narsa yaratilmasdan turib, so'z paydo bo'lganini asoslab bergani shundan). So'z xuddi gavhar, zumuraddek tiniq, zilol suv yanglig' shaffof, tillo misol qimmatbaho. Uni istifoda etuvchi baayni zargar bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, xalq xizmatida, ularning quvonchu iztiroblariga sherik bo'lib, hayot tarzi-yu yashash falsafalarini satrlarga tizuvchi shoirlar. Erkin Vohidov bejiz bunday fikrlamayapti. So'zni baytga qadashdan oldin, uni muqaddas kitobimiz singari ikki kaftga qo'yib tavof qilmoq ma'qul. SHundagina aytilmoqchi fikrdan oldin uning YAratuvchisi oldida mas'uliyat deb atalmish bir kuch tog'dek bo'y cho'zadi. SHundagina so'z egasi nimani tavsiflash va qanday tavsiflashda odobning yozilgan va yozilmagan me'yorlariga bo'ysunishga majbur bo'ladi. SHu jihatdan qaralganida, Erkin Vohidov ijodining barcha davrlarida so'zga mas'uliyat bilan qaradi, so'zning ilohiy kuchini zalvarli muammolarni lo'nda va

¹ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 5.

ohorli tasvirlashga safarbar eta bildi. Uning katta-kichik she'rlari mag'zidan inson hayotiga tegishli ayonu noayon haqiqatlar – qamrovi keng fikrlar majmuasi yuzaga keladi, degan xulosalarni aytishga asos bo'ladi. O'tkir Hoshimov ham shunday. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"da shunday. Qisqa jumla yoki manzara tasviridan zalvarli xulosalar – ayrimlari quvontiradigan, ayrimlari o'ylatadigan, ayrimlari esa yig'latadigan fikrlar paydo bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, O'.Hoshimov so'z orqali faylasuf, donishmand, zukko, ziyarak inson sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ni kichik-kichik qaydlardan iborat, dedik. Bu uning obro'cini zarracha tushirmaydi. Ustoz A.Qahhor "YOshlar bilan suhbat" kitobida xalq og'zidan eshitgan yoki birdan taxayyulida jonlangan inja fikrlar, "topilmalar"ni yon daftarlariga tushirib borganligini, o'rni bilan ularni asarlari matniga singdirib yuborganligini qayd etgan edi.² "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" ham ustoz A.Qahhorning qaydlari shaklida. Biroq A.Qahhor ayrim masalalargagina munosabat bildirgan bo'lsa, O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ida munosabat bildirilmagan masalaning o'zi kam. Adib bu munosabatlarida ko'pni ko'rgan bir inson sifatida, olimi boamal, farosatli, didli kishi tarzida namoyon bo'ladi. Bitiklarni o'qigan har bir kishi ko'z o'ngida yozuvchining siymosi "mana men" deb turganday bo'ladi. Boshqalarni bilmadim-u, men "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"dagi qaydlarni mutolaa qilganimda, O'.Hoshimovdan uyalib ketaman: "Nahotki, bu odam ko'rib turgan holatlarga biz shu qadar e'tiborsiz bo'ldik", deb.

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"dagi qaydlarning qamrovi keng, ular mo'jaz matnlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular mazmunining salmog'i, agar ta'bir joiz bo'lsa, bir katta asarga, epik polotnoga teng. Epik asrlardan ham ana shunday manfaat topadi o'quvchi. Deylik "O'tgan kunlar" mutolaa qilgan kitobxon undagi voqealar ketidan ergashib, "saqichini chaynab o'tirsa" hech vaqo ololmasligi mumkin. Biroq uni e'tibor bilan o'qib har bir lavhadan, jumla-yu diologlardan nimanidir topsa, qo'llagan lisoniy birliklar mag'zini chaqa olsa, undan istaganini topishi mumkin. Eslab ko'raylik: Otabek Marg'ilondan uylanib qaytgandan so'ng, O'zbek oyimning qistovi bilan YUsufbek xoji ham o'g'lining Toshkentdan uylanishiga rozilik bildiradi. O'rtada ota-ona va farzand o'rtasida bir suhbat bo'lib o'tadi. Otabek ota-onasining bu rejalarini qat'iy rad etganda, YUsufbek xojining bir gapi bor: "Bizning xonadondan lafzsizlik chiqashi menga ma'qul ko'rinmaydur". Bu nutq bir nuroniy kishining so'zlari. Unda aqlli, did-u farosatli, ko'pni ko'rgan va ko'p ustida turib, ularning mushkullarini adolat bilan hal qilib kelayotgan kishining so'zlari. Bu YUsufbek hojining minglab ana shunday purma'no gapining bittasi,

² Қаҳҳор А. Асарлар. 6 томлик, 6 том. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1971. – Б.469-475.

xolos Lekin bu nutq barchaga ibrat bo‘larli gap. Kishining tarbiyalaydigan, unga o‘git beradigan gap. O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”iga kirgan har bir qayd ana shunday zalvari bilan e’tiborni tortadi. Bu holat undagi faylasufona fikrlarni muayyan mavzu yo‘nalishlarga ajratishni taqozo etadi.

Biz bu fikrlardan kelib chiqib, adibning faylasufona qaydlarini quyidagi yo‘nalishlarga ajratishni lozim topdik:

- yurtimizning kechagi kuni, kishilarning kechagi fe‘l-atvori, bir-birlari bilan munosabatlari haqidagi o‘ylari, qisqasi, yaqin tarix haqidagi mushohadalari;

- tarix, qatag‘on va ayrim kishilarning buqalamunligi to‘g‘risida;

- islom va islom dini xususida;

- ko‘ngil va ko‘ngil tozaligi xususida;

- insoni komillik haqida;

- Xudodan qo‘rqishning fazilati haqida;

- haq va haqiqat xususida;

- loqaydlik va uning zarari haqida;

- go‘dak, bola qalbi hamda uning tili, podshosifatligi xususida;

- etim va uning haqqi borasida;

- er-xotinlik va tirik etim bolalar to‘g‘risida;

- kitob va kitobxonlik borasida. To‘g‘risi, kitob va kitobxonlikning foydalari haqida;

- avvalo Ona va farzand, onaning o‘z farzandlariga bo‘lgan muhabbati, farzandlari o‘zi ota yoki buvi bo‘lganda ham, Ona uni kichkinaligida qanday ardoqlagan, qanday xavotir bilan yashagan va qanday munosabat ko‘rsatgan bo‘lsa, kattarganda ham shu munosabat saqlanganligi haqida; - ota-ona va ustozlar xususida;

- mahalla instituti va mahalla kishilari haqida;

- birovning haqqi, ko‘cha haqqi, umuman olganda, haq masalasi, kishilar orasidagi o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida;

- insonda aql va farosatning uyg‘unligi, tevarak-atrofdagi voqelikka kishilarning munosabati borasida;

- o‘zbek udum va tutumlari haqida, to‘g‘rirog‘i kishilarning bu udumlarni bajarishi to‘g‘rimi yoki bid‘at bo‘lib kirib qolganmi, Bunga yozuvchining munosabati xususida;

- jamiyat va kishilararo ziddiyatlar to‘g‘risida va hokazo.

Endi shulardan ayrimlarini tahlilga tortib ko‘raylik. Ana shu jarayonda biz keltirgan tasnif nechog‘lik o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanligi ayon bo‘ladi.

1. Yurtimizning kechagi kuni, kishilarning kechagi fe'l-atvori, bir-birlari bilan munosabatlari haqidagi o'ylari, qisqasi, uzoq va yaqin tarix haqidagi mushohadalari. O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"iga kirgan qaydlar ichida "Tarix xatosi" atalgan qayd mavjud. Unda adib asrlar mobaynida o'zbek millati va jannatmakon yurtimizga shuhrat keltirgan allomalar yuzasidan fikr yuritadi. Uning qaydlari ushbulardir:

"To'qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi.

O'ninchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Metafizika" asariga eng mukammal sharh yozib, "ikkinchi ustoz" (muallimi soniy) unvonini oldi.

O'n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Er bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi. Ibn Sino medetsina Qomusi - "Tib qonunlari" ni yaratdi.

O'n to'rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Evroosiyoning yarmini tasarrufga oldi. Ahli ilm boshini silab, o'lmas obidalar yaratdi.

O'n beshinchi asr. Ulug'bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa" sini yozdi.

O'n oltinchi asr. "Boburnoma" olamga tarqaldi.

O'n ettinchi asr. SHoh Jahon dunyodagi enti mo'jizaning biri - "Tojmahal" ni bunyod etdi.

Yigirmanchi asr. O'zbek-sovet olimlari misli ko'rilmagan "ixtiro" qildilar: tarix "xato"sini tuzatib, o'tmishda biz yoppasiga "savodsiz" bo'lganimizni isbotlab berdilar...

Ushbu qayd qadim o'tmishdan kechagi kungacha qilingan sarhisobga o'xshaydi. Har asrda bo'y ko'rsatgan ulug' daholarimiz bilimlari butun dunyoga nur sohib turgan paytda sovet olimlarining xalqimizning yoppasiga "savodsiz" ekanligini isbotlashi ko'rinib turgan narsani yo'q deyishday gap. Albatta o'zbek-sovet olimlarining bu "muhim ixtiro"si ancha yillar davomida yot mafkuraga sig'inishimizga, tafakkur qilish va erkinlik tuyg'ularini niqoblangan holda his etishimizga sabab bo'ldi. Mening nazarimda, O'.Hoshimov bu satrlarni ermak uchun yozayotgani yo'q. Bu zot hamma narsani tushunar edi. Bularga uning publitsistik maqolalari, "Bahs" ko'rsatuvlarida chiqishlari, ko'rsatuvga tanlangan mavzular to'kis javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.

2. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
4. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
5. Shoxruxbek, M., Qosimov, A., Abdurashidovich, Q. A., Murodilovna, O. G., & Umurzakov, R. (2022). THE INWARD WORLD OF AN ARTISTIC DEPICTION OF THE CONTRADICTIONS.
6. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. *Toshkent: Akademnashr*.
7. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
8. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
9. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
10. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференции*.
11. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
12. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
13. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
14. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.

15. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
16. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
17. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 389-392.
18. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
19. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
20. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
21. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK’S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
22. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.
23. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
24. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
25. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features. *EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH(IJMR)*, 2020, november, No6, page510-513.
26. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 304-309.

27. Xo‘jayev, S., & qizi Tuychiboyeva, N. K. (2022). BOLA RUHIYATI TASVIRI (CH. AYTMATOV VA O‘. HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA). *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(3), 125-129.
28. Xo‘Jayev, S., & Abdumalikova, D. R. Q. (2022). BADIY ADABIYOTDA OPA-SINGILLAR OBRAZI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 734-740.
29. Mo‘Minova, T. S. (2022). BADIY ASARDA NUQTAI NAZAR VA XARAKTER IFODASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 768-774.
30. Rustamova, I. I. (2021). Rhythm Views on the Plot of the Work. *Badiy asar syujetida ritm ko‘rinishlari.//International Journal of Innovative Research.–India*, 8355-8357.
31. Rustamova, I., & Mamayusupov, S. (2022). AUTHOR’S POSITION AND STORY FUNCTION IN ABDULLAH QAHHOR’S STORY" HEADLESS MAN". *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 120-127.